



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2025-yil 5-iyun

369-10-0-Q/25

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 330-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi “O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar haqida”gi 330-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, **qaror qilaman**:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 27-maydagi 330-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qaror bilan:

O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer maydonlariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e‘tirof etish to‘g‘risida”gi qonuni ijrosi yuzasidan 2025-yilning 30-aprel holatiga 1 234 ta mahalla fuqarolar yig‘inidagi 247 mingdan ortiq ko‘chmas mulk obyekti xatlovdan o‘tkazilgani, “E‘tirof” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga 99 mingga yaqin obyekt joylashtirilgani, 200 dan ortiq obyektga nisbatan huquqlar e‘tirof etilgani ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi (R.Payziyev):

bir oy muddatda reja-jadval asosida tuman (shahar)larda xatlov o‘tkazilishini yanada jadallashtirish maqsadida ko‘chmas mulk obyektlarini joyiga chiqqan holda xatlovdan o‘tkazishga shartnoma asosida qo‘shimcha xodimlar jalb qilinishini ta‘minlasin hamda doimiy ravishda ularning malakasini oshirib borsin;

Qonunning 12-moddasi beshinchi qismida belgilangan talabga muvofiq har bir yer maydoniga alohida yondashgan holda yer maydonining bino va inshootlari mavjud bo'lmagan, ekin ekiladigan qismini dehqon xo'jaligi yoki tomorqa xo'jaligi yuritish uchun belgilanishini ta'minlasin;

Qonunning 5-moddasi talablariga muvofiq, tegishlicha ijara va mulk huquqini e'tirof etish masalasi ko'rib chiqiladigan yer maydonining, bino va inshootning elektron yig'ma jildi hujjatlarini ushbu yer maydoni bino va inshootlar bilan band bo'lgan taqdirdagina avtomatlashtirilgan axborot tizimiga joylashtirsin. Bunda yer maydonining chegarasi ko'chmas mulk obyektiga kirish qismidan boshlab aniqlanadi.

4. Tuman (shahar) hokimliklari: qonun talablariga muvofiq huquqni e'tirof etish masalasi ko'rib chiqiladigan yer maydonlari hamda ularda qurilgan binolar va inshootlar hokimliklar hamda tegishli vakolatli tashkilotlar tizim tashkilotlari tasarrufida (ixtiyorida) bo'lgan kanallar va boshqa suv xo'jaligi inshootlari hamda shaharlar va boshqa aholi punktlarining ko'chalari, xo'jalik avtomobil yo'llarining tegishli mintaqalar hamda muhofaza zonalarida joylashgani yoki joylashmagani haqidagi ma'lumotlarning avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilib (biriktirilib) borilishini ta'minlasin.

5. Soliq boshqarmasi (A.Inagamov) qonunga muvofiq huquqni e'tirof etish masalasi ko'rib chiqiladigan ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha yer solig'i va mulk solig'ini hisoblashda tuman (shahar) soliq inspeksiyalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 88-moddasi talablariga qat'iy rioya qilinishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

6. O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (S.Jumayev) bir hafta muddatda qonunning 23-moddasiga muvofiq:

yakka tartibdagi uy-joylar qurish uchun ortiqcha egallangan yer maydoniga bo'lgan ijara huquqining 0,01 gektar maydoni uchun o'rtacha bozor qiymatini elektron onlayn-auksion savdolarida mulk huquqi asosida realizatsiya qilingan yer maydonlarining o'rtacha narxidan kelib chiqqan holda;

noturar obyektlar qurish uchun ortiqcha egallangan yer maydoniga bo'lgan ijara huquqining 0,01 gektar maydoni uchun o'rtacha bozor qiymatini - tegishlicha elektron onlayn-auksion savdolarida tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish hamda kichik sanoat va yoshlar sanoat hamda tadbirkorlik zonalarida faoliyat ko'rsatish maqsadlarida realizatsiya qilingan yer maydonlarining o'rtacha narxidan kelib chiqqan holda;

dehqon yoki tomorqa xo'jaligi yuritish uchun rasmiylashtirib beriladigan ortiqcha egallangan yer maydoniga bo'lgan ijara huquqining 0,01 gektar maydoni uchun

oʻrtacha bozor qiymatini dehqon xoʻjaligini yuritish uchun realizatsiya qilingan yer maydonlarining oʻrtacha narxidan kelib chiqqan holda avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritish choralarini koʻrsin hamda ushbu maʼlumotlarni belgilangan muddatlarda yangilab borsin.

7. Toshkent viloyati prokuraturasiga qonun ijrosini taʼminlashda aniqlangan qonun buzilishi holatlarini bartaraf etish yuzasidan prokuror nazorati hujjatlarini qoʻllashni yoʻlga qoʻyish tavsiya etilsin.

8. Oʻzbekiston mahallalari uyushmasi Toshkent viloyati hududiy boʻlimi (F.Xudoyberdiyev), viloyat Ichki ishlar bosh boshqarmasi (T.Aripov) kadastr organlari tomonidan xatlovdan oʻtkazishni jadallashtirish maqsadida bino va inshootlarga kirish imkoni mavjud boʻlmagan obyektlarda oʻlchov ishlarini toʻsqinliksiz amalga oshirishda mahalla raislari va profilaktika inspektorlarini jalb qilish choralarini koʻrsin.

9. Toshkent viloyati hokimligi (O.Tursunov, Sh.Mahmudov, X.Qoraboyev), Kadastr agentligi viloyat hududiy boshqarmasi (R.Payziyev):

tuman (shahar) hokimliklari tomonidan Xalq deputatlari viloyat Kengashining yer maydoniga boʻlgan ijara huquqini hamda unda qurilgan bino va inshootga boʻlgan mulk huquqini eʼtirof etish toʻgʻrisidagi qarorlari qabul qilinganidan soʻng uch kun muddatdan kechiktirmasdan yer maydonining ijara shartnomasi tuzilishini taʼminlasin;

qonun ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlar natijasi boʻyicha har oyda kamida bir marotaba yigʻilishlarda tanqidiy muhokama qilib borilishini yoʻlga qoʻysin;

qonun tatbiq etiladigan koʻchmas mulk obyektlari sugʻoriladigan yerlarda joylashgan taqdirda, ushbu yer maydonlarining yer fondi toifasini oʻzgartirish boʻyicha takliflarni belgilangan tartibda Hukumat komissiyasiga kiritib borsin.

10. Mazkur qaror bilan: Oʻzbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritilganligi inobatga olinsin.

11. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari O.Tursunov, viloyat hokimi oʻrinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklatilsin.

**Toshkent viloyati
hokimi**



Z.Mirzayev